



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

g'ach/-kach morfemalari orqali tergach, borg'ach, yorg'ach, topg'ach, sotqach kabi so'zlarning o'rnida so'ng, keyin ko'makchilarini bemalol almashtirib qo'llash mumkinligini aytib o'tadi. Masalan: tergandan so'ng, borgandan keyin, yorgondan so'ng, topg'ondan so'ng, sotqondan keyin kabi. Bunday holatda-dan chiqish kelishigi qo'shimchasi ko'makchidan oldin qo'llaniladi. [Sobirova Sh. 2023: 68].

Alisher Navoiy ijodi kelajak avlod tilshunoslari uchun ilmiy ishlar olib borish, tadqiq qilish, o'rganish mumkin bo'lgan katta xazinadir. "Lison ut-tayr" asari misolida ayrim morfemik birliklarni tahlil qilib o'tdik, bu shoiri jodini tilshunoslikning navbatdagi sathlarida o'rganish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. –Тошкент.: Шарқ, 2010. – Б. 97
2. АлишерНавоий. Мукамал асарлар тўплами: Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 42
3. Анорбекова А., Ш. Мирзаева. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ношир, 2011. – Б. 82
4. Нурмонова А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б. 92
5. Собирова Ш. Алишер Навоий асарларида қўлланган қўмакчи ва келишик қўшимчаларининг ўзига хос хусусиятлари. Journal of innovations in social sciences. 2023, – В. 68

ALISHER NAVOIY IJODIDA MILLIY ETNOSPORT O'YINLARI

Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zR FA Sharqshunoslik instituti

jumaniyazova84@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/JEUY1999

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan milliy etnosport o'yinlari tahlil qilingan. Shoir ijodida o'zbek milliy o'yinlaridan bo'lgan polvonlik, milliy merganlik (oltin qoboq) va ot mavzusi ham joy olganini ko'rish mumkin.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, oltin qoboq, Pahlavon Muhammad, ot, kushtigir.*

NATIONAL ETHNOSPORT GAMES CREATED BY ALISHER NAVOI

Abstract. *This article analyzes the portrayal of national ethnospports in the works of Alisher Navoi. It examines how the poet incorporates traditional Uzbek sports, such as wrestling, national shooting (specifically the gold pumpkin), and equestrian themes, into his literary oeuvre. The study highlights the cultural significance of these activities as depicted in Navoi's writings and explores their symbolic and thematic roles within the broader context of his work.*

Keywords: *Alisher Navoi, pumpkin, Pahlavan Muhammad, horse, kushtigir.*

Alisher Navoiy ijodida jismoniy kuch, badan tarbiyasi, sog'lom tana kabi masalalar bilan birga xalq o'yinlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Kurash, chavgon, o'qchilik, shatranj kabi mavzularga asarlarida ko'p bora murojaat qilingan. Uning asarlaridagi qahramonlar nafaqat o'zining tafakkuri va zehni, balki jismoniy baquvvatligi, uddaburonligi, pahlavonligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqining milliy etnosport o'yinlariga e'tibor beradigan bo'lsak, unda boshqa turkiy qardoshlarimizda bo'lgani kabi uch qadim sport turi – kurash, kamondan otish va ot poygasi avvalo ko'z

oldimizda gavdalanadi. Ana shu uchta o'q ildiz bo'lgan sport turiga xos ma'lumotlarni Alisher Navoiy asarlarida uchratish mumkin.

Alisher Navoiyning "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois" va boshqa asarlaridan xalq o'yinlariga taalluqli qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Allomaning asarlarida badantarbiya "ilmi badan" yoki "badan ilmi" yohud "ko'ngil tarbiyasi", milliy sport turlarini ifodalash uchun "zo'ri", "dilovalrig", "go'y", "silahshurlik" kabi atamalar qo'llanilgan. Shuningdek, u "tiyrandozlik", "chavandozlik", "nayzabozlik", "chavgon", "qovoq", "kurash", "qilichbozlik" kabi qadimiy xalq o'yinlariga murojaat qilgan. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniatyura rasmlarida ham milliy jang san'atining turli ko'rinishlari o'z aksini topgan [Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлар энциклопедияси: 2022, 104]. Asarlaridagi mashhur qahramonlardan Bahrom mashhur mergan bo'lsa, Farhod uchun Firdavsiyning "Shohnoma" asaridagi Afrosiyobning jangovor sipohsolari – pahlavon Farhod timsoli tanlab olingan [Юсупова, 2021: 111,151].

Birgina misol, ushbu buyuk shoirning o'z davrining polvon, kurashchilariga bag'ishlab "Holoti Pahlavon Muhammad" nomli manoqib yozganidan ham ko'rsa bo'ladi [Alisher Navoiy, 1999: 119]. Turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda kurashchilarga "polvon" yoki "pahlavon" deyilgan [Djumaniyazova, 2024: 105]. Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasining to'rtinchi faslini Pahlavon Muhammad zikri bilan boshlagani ham shu davrda kurashchilar xuddi ikki asr oldin Pahlavon Mahmud qanday ulug'lansa, ushbu shaxsning ham shunday darajaga yetganini ifodalaydi: "Pahlavon Muhammad Go'shtigirkim, ko'b fazoyil bila orostadurkim, go'shti fani bavujudi ulkim, aning andoq haq va mulkidurkim, ma'lum emaskim, hargiz bu fanda andoq paydo bo'lmish bo'lg'ay. O'zga fazoyilig'a ko'ra dun martabasidur. Musiqiy va advor ilmida davrining benaziridur. Chun kamoloti "azharu min ash-shamsdur, sharh qilmoq ehtiyoj emas" [Omanova, 47]. Bu ma'lumotlar Alisher Navoiy yashagan davrda milliy kurash va pahlavonlarning qadri jamiyat orasida yuksak bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu asarning Pahlavon Muhammadga berilgan iqtibosida "Pahlavon Muhammad davrning yirik madaniyat arboblardan biri edi. Alisher Navoiy bu go'zal insoniy fazilatlarga ega, ilg'or fikrli shaxs bilan 40 yil mobaynida yaqin do'st bo'lgan va uni o'zining murabbiysi sanagan. Pahlavon Muhammad xalq kurash turlaridan "kushtigir" – yakkama-yakka kurash tushishda shuhrat qozongan. Hech shubhasizki, Navoiydek ulkan arbob va buyuk shoir faoliyati hamda ijodiyoti yo'nalishida, ravnaqi va takomilida Pahlavon Muhammad kabi ulkan madaniyat namoyandalarining o'rni katta bo'lgan. Pahlavon Muhammad vafotidan keyin Navoiy uning xotirasini abadiylashtirib, bu risolasini yozgan. Unda do'sti va murabbiysining g'oyat jozibali obrazini yaratgan hamda xarakterini go'zal va betakror chizgilarda ochib bergan" kabi jumlar o'rin olgan [Alisher Navoiy, 1999: 129]. Pahlavon Muhammadning tog'asi ham Pahlavon Abusaid ismli kishi bo'lib, o'z zamonasining mashhur kurashchilaridan biri bo'lgan, qadimdan polvonlik oilaviy kasb hamda mazkur an'ananing avloddan-avlodga o'tganligini hisobga olsak, Pahlavon Muhammadning kurashning sir-asrorlarini tog'asidan o'rgangan degan xulosaga kelish mumkin. Alisher Navoiy davrida kurash tushuvchi polvonlar "kushtigir" deb atalgan, lekin "pahlavon" nisbati nafaqat jismonan yetuk, balki tariqat bilimlarini egallagan, musiqa nazariyasi hamda she'riyat ilmidan ham xabardor bo'lgan (Kushtigir taxallasi bilan ijod qilgan), qiroat ilmini ham yaxshi bilgan, ilmi nujum (osmon jismlari va uning harakatlarini o'rganuvchi fan, astronomiya) borasida ham ma'lumotga ega, Mavlono Qutbiddin ismli zamonasining

mashhur tabibidan tabobatni ham o'rgangan har tomonlama serqirra qobiliyat egasiga berilganini ko'rish mumkin. Navoiy bu shaxsni ko'p bilimli kishi ekanligidan, suhbatiga erishish uchun beklarning unga intilganiga urg'u berib: "Borcha sodotu mashoyix va ulamoyu fuqaroning mahbub ul qulubi erdi va podshoh eshigida arkoni davlatdin oliyshon beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg'a Pahlavonning suhbati navro'z va bayramcha bor erdi, hattoki sultonzodalar tilamas erdilarkim, bir lahza onsiz bo'lmag'aylar erdikim, podshohzodalardin nechaki muta'mad otlanib, Pahlavonning takyasiga borib, suhbatlig'e qilg'aylar erdi", - deb ta'kidlaydi [Alisher Navoiy, 1999: 140]. Navoiy keltirgan "oqshomki, tak'yasiga boribdir, kushtigirlariga taklif bila o'rgatibdir" kabi jummalarga tayanib, Pahlavon Muhammadning tak'yasida shogird-polvonlari bo'lganligi va ular uchun takka (tariqatga kirgan bir kasbga mansub kishilarning yig'ilib, ibodat va marosim o'tkaziladigan joy, dargoh) tashkil qilgan, degan fikrga kelish mumkin. Xullas, polvonlik, kurashda kuragi yerga tegmaslik, XV asrda ham xalqimiz orasida keng yoyilganidan dalolatdir va bu polvonlar el ardog'idagi kishilar bo'lganini bildiradi. Navoiy bergan ma'lumotlarga tayanib, uning yaqin do'sti bo'lgan Pahlavon Muhammadning o'z davrining Pahlavon Mahmudi bo'lgan, desak, arziydi. Pahlavon Muhammad Sulton Husayn Boyqaro uning uchun atab maxsus qurdirgan Ne'matoboddagi dahmaga dafn qilingan [Юсупова, 2021: 249].

Navoiy asarlarida milliy o'qchilik san'atining nodir namunalaridan biri bo'lgan, qadimdan er yigitlar orasida ardoqlanib o'ynalib kelingan "Oltin qoboq" o'yini ham tasvirlangani diqqatga sazovordir. Ma'lumki, "oltin qoboq" oshqovoqqa o'q otish o'yini, o'zbeklarda qadimdan mavjud bo'lgan "Oltin qoboq" dostoni syujeti uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Unda haj safariga ketishdan avval Chambil elida boshqaruvni qabul qila oladigan munosib nomzodni aniqlash maqsadida, Go'ro'g'li tomonidan "oltin qoboq" o'yinining tashkil etilishi va bu musobaqada Avazxonning g'olib bo'lishi tasvirlanadi [Жўпаев, 2021: 141]. Mazkur o'yin juda qadimiy bo'lib, dastlab, "Go'ro'g'li" turkum dostonlari tarkibida vujudga kelgan. Unda hikoya qilinishicha, Go'ro'g'li keksayib qolganidan so'ng davlati va to'plagan merosini kimga berishini bilmay qirq yigitini chaqirib, ularga uzun xodaning uchiga "oltin qovoq"ni osib, otda chopib kelib, kamon bilan shu qovoqni urib tushirganga davlati va merosini berishni vada qiladi. Shunda Go'ro'g'lining aytganlarini bajo keltirishib, qirq yigiti oltin qovoqni baland xodaning uchiga bog'lashib, musobaqaga hammalari tayyor ekanliklarini xabar berishadi. Go'ro'g'li atrofidagi a'yonlari bilan yigitlarning musobaqasini tomosha qilishga maydonga boradi. Qirq yigit otda tezlik bilan kelib, tepadagi o'rnatilgan qovoqqa kamondan o'q uzadi. Harchand harakat qilishmasin, ularning birortasiyam qovoqni urib yiqita olmaydi. Navbat Avazxonga keladi. U uzoqdan ot choptirib kelib, nishonni mo'ljalga olib, kamondan o'q uzadi. Shunda qovoq ikkiga bo'linib ketadi. Shu munosabat bilan o'zbeklar orasida "oltin qoboq" yoki "qoboq o'yini" vujudga keladi va ommalashib ketadi. "Oltin qoboq" o'yinida baland yog'och uchiga oshiq yoki tanga osib qo'yish an'anasi mavjud bo'lgan. Dostonlarda aynan oshiq osib qo'yilgani ta'kidlanadi. Oshiq qadimgi turkiy mifologiyadagi personajlardan biri – Umayning timsoli, deb qaralgan [Жўпаев, 2021: 109]. Navoiyning bu dostonidan xabari bo'lganmi-yo'qmi, ammo shunisi aniqki, u o'zining "Chobukekim, har taraf maydon aro aylar shitob ..." deb boshlanadigan g'azalida o'zbek xalqining azaliy o'yinlaridan biri "Qovoq" o'yinini ta'riflagan va bu masalaga birinchi marta tadqiqotchi X.A. Meliyev o'zining "Alisher Navoiy asarlarida etnosport turlari, xalq o'yinlari haqidagi qarashlari" nomli

maqolasida o'z e'tiborini qaratgan [Мелиев, 2023: 302]. Quyida "Badoye ul-bidoya"da 60-raqamda joy olgan ushbu ga'zal keltiriladi:

Chobukekim, har taraf maydon aro aylar shitob,
Barqi lomi'dur samandi, gardi andoqkim sahob.
O'qi rashkidin erur ko'ksun aro ko'nglum qushi
Ul kabutarkim, qabaq ichinda qilg'ay iztirob.
Otsa o'q ul qoshi yo yuz pech urar jon rishtasi,
Kim manga hirmonu oning o'qig'a etgay tanob.
Nogahon otqaymu deb bir o'q qabaq shakli bila
Boshi ustiga kelur maydonda har kun oftob.
Ul quyoshdin boshqa kim otqay qabaq, vah, ko'rmaduk
Axtari Sa'deki, har dam zohir etgay bir sahob.
Jon berurmen qayrilur chog'da ko'rub belida pech,
O'lsa tong yo'q ulki, joni rishtasig'a tushsa tob.
Kimki sarkashrak - havodis o'qig'a ko'prak hadaf,
Ushbu holatni qabaq ahvolidin qilg'il hisob.
Ey Navoiy, chun o'qi har dam falak mayli qilur,
Sen oti gardiga qoni' bo'lki, bordursen turob.

Baytlarda tasvirlanganidek, merganlar-o'qchilarning qobiliyatiga osmonda quyoshning ham havaslanib, o'zini qovoq o'rniga qo'ygisi kelib maydonda boshi ustiga keladi [Мелиев, 2023: 302].

Navoiyning zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarining ikki joyida "oltin qoboq" o'yinidan quyidagi shaklda bayon qiladi: "Shijoati bor edi. O'zining qo'lidan ish kelgan hech bir holat bo'lmagan esa-da, aytishlaricha, ba'zi jang marakalarida unda shijoat asari ko'ringan ekan. O'qni juda yaxshi otar edi. Ilvasinga patli va patsiz o'qlari ko'p hollarda tegardi. Nishon uchun qo'yilgan qovoqni maydonning u boshi, bu boshidan kelib ham aksar hollarda urar edi..." [Захириддин Муҳаммад Бобур, 2008; 39]. Shuningdek boshqa bir o'rinda: "Yana, Islim barlos edi. Turk kishi edi. Qushchilikni yaxshi bilardi. Ba'zi ajoyib ishlarni qilardi. O'ttiz-qirq botmon yoy o'qini kuch bilan otib, taxtadan o'tkazardi. Qabaq (kamon otish mashqida qo'llanadigan nishon) maydonida maydon boshidan chopib, yoyni tushirib olib, otib, qovoqsimon nishonga urardi. Yana zehgirni (barmoqqa kiyiladigan angishvonasimon uskuna) bir-bir yarim qari chilvirga bog'lab, chilvirning ikkinchi uchini bir yogochga mahkamlab, aylanar edi. Aylanish holatida o'qni otib, zehgirdan o'tkazardi...", - deya ma'lumot bergan [Захириддин Муҳаммад Бобур, 2008: 135]. Bu o'yin XV-XVI asrlarda keng ommalashganini shu asarlar orqali ko'rish mumkin.

Ma'lumki, ot har bir turkiy askarning eng yaqin do'sti, sarkardalarning esa ulkan davlatlarni egallashlari uchun bosh asos bo'lgan. Chavandozlik, ot, sipohi mavzusi Navoiy asarlarida uchrashiga misol uning ot radifli g'azalidir:

Chobukekim qatl uchun surdi yana maydong'a ot,
Odamiy qolmas tirig solg'an zamon javlong'a ot.
Budurur ma'noki, shoyad qolg'an erkin bir kishi,
To aning jonin ham olg'aykim, surar har yong'a ot.
Har kishini qatlkim aylar, o'larmen rashkidin,
Vahki, bir ham yongilib surmas meni hayrong'a ot.
Ne balo qattig' ko'nguldurkim qatl el qonig'a

Ot surar surgan masallik lolavu rayhong'a ot.
 Uylakim buzg'ay qyunni o'zga bir to'fon kelib,
 Ul sifat nobud etar surgach bu sargardong'a ot.
 Kimni o'lturmakka otsang o'q, mening jonim chiqar,
 Bir dag'i tirguzgali men bedili bejong'a ot.
 Davrdin ko'p ranjamen, usruk chiqib mayxonadin,
 Raxshi himmat uzra solmoq istaram davrong'a ot.
 Shomi tufroqqa kirardin chora yo'qtur, garchi subh
 Kimki, sekritkay quyoshdek bu binik ayvong'a ot.
 Qo's uni tuttn Navoiy nazmidek ofoqni,
 Go'yyokim sayr etarga chektilar sultong'a ot.

Ammo e'tiborli jihati shundaki, ko'pkari o'yini yoki unga o'xshash ot o'yini sahnalari haqida ma'lumotlar Alisher Navoiyning asarlarida uchramaydi. Biroq "oltin qovoq" o'yini Navoiy davri va uning zamondoshlari xotiralarida bot-bot eslatilishi uning shu davrda keng yoyilganidan dalolat beradi. Xususan, Fazlulloh ibn Ro'zbe'xonning "Mehmonnomai Buxoro" asarida "Oltin qoboq" merganlik o'yini sifatida alohida eslatiladi. Unda 1509-yilgi yurish oldidan Shayboniyxon huzuriga barcha sultonlar ot minib, qovoqni nishonga olish uchun kelgani, o'n mingga yaqin o'zbek bahodiri ikki yuz gaz yuqoridagi qovoqqa o'q uzgani voqealari alohida ta'kidlanadi [Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан, 2012: 124]. Umuman, bu o'yinning mavjudligi qadimdan xalqimizning merganlik faoliyatining yuksak saviyada rivoj topganini ko'rsatadi. Navoiyning merganlik mavzusiga qiziqqani va asarlarida bir necha marta ushbu mavzuda misralar bitganiga yana bir misol "Risolai tiyr andoxtan" asarining unga nisbat berilishidir. Bu kichik asarning ashtarxoniy Abdulazizxon (1645-1680 yy.) kitobxonasiga mansub bir majmua tarkibida mavjud bo'lgani aytiladi. Bu risola mazmunan kichik asar bo'lsa-da, 7 hadis va rivoyatdan iborat bo'lib, unda tiyrandozlik, o'qchilik, merganlik kasbining foydalari haqida so'z yuritilib, "agar tiyrandozliqni biyik savobin aytsam, xalq kasbu tijoratidin qolg'aylar. Va o'q otmoqdin o'zga ish qilmag'aylar. Ammo bir soat o'q otmoq savobi bilan ellik yilg'i toatning savobi barobar turur" deyiladi [Алишер Навоий, 2000: 261-308]. Bu bilan Navoiy o'q otishning savobli amallardan biri ekanligini tushuntirishga harakat qiladi [Юсупова, 2021: 255].

So'nggi o'rta asr Xorazm manbalarida ham, xususan, "Firdavs ul-iqbol" asarida Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi turli tadbirlar, to'y marosimlarida shahzodalar bellashuvi tasvirlanar ekan, "oltin qoboq" musobaqasi tilga olingan. Asarda keltirilishicha, Muhammad Rahimxon I (1806-1825) 1226/1811 yilning 18-mart kuni Hazoraspda o'tkazilgan xatna to'yiga tashrif buyurar ekan, ziyofatdan so'ng, "oltun qabaq" musobaqasini uyushtirgan hamda "oti o'tgan (o'zib ketgan) va harifini yiqg'an", ya'ni raqibini mag'lub etgan pahlavonlarni munosib in'om va shohona hadyalar bilan siylagan. "Oltin qovoq" bellashuvida g'olib bo'lganlar, ya'ni nishonni bexato urgan merganlar hukmdordan olgan mukofot bilan birga qovoq ichiga qo'yilgan olin tangani ham qo'lga kiritishgan [Мунис ва Огаҳий, 2010: 345-346]. Xullas, bu o'yin jangga ketishdan oldingi tayyorgarlik musobaqasi sifatida o'tkazilib turilgan. Bundan shahzodalarning voyaga yetgani munosabati bilan, ularga mo'ljalni to'g'ri olish, strategiyani oldindan belgilash kabi vazifalarni o'rgatish uchun ham qo'llanilgan.

Milliy o'yinlar va ular bilan aloqali qurol-aslahalar ba'zan baytlarda majoziy ma'no ham kasb etgan.

Yuqorida Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan xalq o'yinlariga oid ma'lumotlarga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, sog' tanda sog'lom aql iborasi o'sha davrda ham amalda bo'lib, kurash (polvonlik), merganlik (kamondan o'q otish) va ot poygasi kabi etnosport o'yinlari faol bo'lgan. Maqolada shatranj va chavgon kabi o'yinlarga yer berilmadi, chunki juda ko'p bora asarlarda tilga olingani uchun ular alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. МАТ. 20 жилдлик. – Ж. 16. – Тошкент: Фан, 2000.
2. Жўраев М. “Олтин қобок” достонининг тарихий асосларига доир// Образование и инновационные исследования. – Тошкент: 2021. №1. – Б. 105-109.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
4. Мелиев Х.А. Алишер Навоий асарларида этносспорт турлари, халқ ўйинлари ҳақидаги қарашлари//International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11. Issue-5. 2023. – Б. 300-304.
5. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол / Масъул муҳаррир ва туркум муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
6. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (ўқув қўлланма). – Тошкент: Tamaddun, 2016.
7. Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлар энциклопедияси. – Тошкент: Zamin nashr, 2022.
8. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимги даврдан ҳозиргача)/Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; масъул муҳаррир Д.Ҳ.Зияева. – Тошкент: Шарқ, 2012.
9. Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. Alisher Navoiy. МАТ. O'n beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1999.
10. Omanova M. Pahlavon Muhammad to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan tarixiy-adabiy va ilmiy-nazariy asarlar//Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. in-academy.uz/index.php/si. – Б. 46-47.
11. Djumaniyazova F. Ўзбек xalqining kùltùrel yàşamlarında iki ata sporu olan güreş ve okçuluk hakkında değèrlendirme// Türk dünyasi halkbilimi. Cilt II. Ўзбекистан-Түркменистан-Кыргызстан-Tataristan. – Ankara: Bengü, 2024. S. 104-116.

O'ZBEK SHE'RIY MATNLARIDAGI KOGNITIV METAFORALARNING FRANSUZ TILIDA IFODALANISHI

Juraqobilova Hamida Xolmatovna

Turon universiteti, G'arb tillari kafedrası dotsenti, s.f.n.

E-mail: xamidajuraqobilova@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/KBZP8574

Annotatsiya. Maqolada tilning estetik imkoniyatlari, milliy tafakkur va madaniy merosini aks ettiruvchi kognitiv metaforalarning she'riy matnlarda qo'llanilishi tadqiq qilindi. O'zbek tilidagi kognitiv metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari va tarjimada qayta yaratilish muammolari Alisher Navoiy g'azallarining fransuz tilidagi tarjimasi misolida tahlil qilindi.

Tayanch so'zlar: kognitiv metafora, she'riy mat, milliy tafakkur, konseptual metafora, konsept, lingvistik hodisa, milliy-madaniy xususiyatlar.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622